



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.....	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	



KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITI



Akbarov Azizbek Abdusattarovich
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: azizbek.akbarov.86@mail.ru
ORCID: 0009-0006-2966-7185

Annotatsiya. Tezisdan korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar auditing nazariyasi asoslari, ESG tamoyillari bilan bog'liqligi va korporativ boshqaruvdagi o'rni tahlil qilingan. GRI, ISO 14001, ISO 19011, ISSA 5000 hamda IFRS S1 va IFRS S2 talablari asosida ko'rsatkichlarni baholash yondashuvlari umumlashtirilib, O'zbekiston korxonalari uchun integratsiyalashgan audit modeli, KPIlar tizimi, integral ESG indeksi va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, ESG, ekologik audit, ijtimoiy audit, ekologik ko'rsatkichlar, korporativ hisobdorlik, GRI, ISO 14001, ISSA 5000, IFRS S1, IFRS S2.

Abstract. This thesis analyzes the theoretical foundations of auditing environmental and social indicators in ensuring the sustainable development of enterprises, their relationship with ESG principles, and their role in corporate governance. Based on the requirements of GRI, ISO 14001, ISO 19011, ISSA 5000, IFRS S1, and IFRS S2, approaches to assessing relevant indicators are summarized, and an integrated audit model, a KPI system, an integral ESG index, and practical recommendations are developed for enterprises in Uzbekistan.

Keywords: sustainable development, ESG, environmental audit, social audit, environmental indicators, corporate accountability, GRI, ISO 14001, ISSA 5000, IFRS S1, IFRS S2.

Аннотация. В тезисе проанализированы теоретические основы аудита экологических и социальных показателей в обеспечении устойчивого развития предприятий, их взаимосвязь с принципами ESG и роль в корпоративном управлении. На основе требований GRI, ISO 14001, ISO 19011, ISSA 5000, IFRS S1 и IFRS S2 обобщены подходы к оценке соответствующих показателей, а также разработаны интегрированная модель аудита, система KPI, интегральный индекс ESG и практические рекомендации для предприятий Узбекистана.

Ключевые слова: устойчивое развитие, ESG, экологический аудит, социальный аудит, экологические показатели, корпоративная подотчётность, GRI, ISO 14001, ISSA 5000, IFRS S1, IFRS S2.

KIRISH

Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar cheklanganligi, bioxilma-xillikning qisqarishi va ijtimoiy mas'uliyatga talabning ortishi korxonalar faoliyatini faqat moliyaviy natijalar bilan baholash yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy korporativ boshqaruvda atrof-muhitga ta'sir, resurslardan foydalanish, mehnat munosabatlari, mehnat muhofazasi, inson huquqlari va mahalliy jamoalar bilan aloqalar to'g'risidagi ishonchli axborot ham muhim mezonga aylandi.

BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari [2], Parij iqlim bitimi [3], Yevropa Ittifoqining Korporativ barqarorlik hisobdorligi direktivasi, shuningdek, ISSB tomonidan qabul qilingan IFRS S1 [5] va IFRS S2 [6] standartlari korporativ hisobdorlik mazmunini kengaytirdi. Shu sababli ekologik va ijtimoiy ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi, qonunchilik hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini mustaqil baholash zarurati kuchaymoqda.



O'zbekistonda ekologik nazoratni kuchaytirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish, chiqindilar va uglerod emissiyalarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. Biroq moliyaviy audit tizimi shakllangan bo'lsa-da, issiqxona gazlari, suv va energiya sarfi, chiqindilar, mehnat xavfsizligi, gender tengligi hamda ijtimoiy investitsiyalarni mustaqil tasdiqlashning yagona metodologiyasini yanada rivojlantirish zarurati mavjud.

Tadqiqotning maqsadi ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar auditining nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish, xalqaro tajribani umumlashtirish va O'zbekiston sharoitida uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ilmiy yangilik sifatida ushbu auditni korporativ barqaror rivojlanish tizimining ajralmas qismi sifatida baholovchi konseptual model hamda uni korxonalar faoliyatiga tatbiq etish mexanizmi taklif etiladi.

BARQAROR RIVOJLANISH, ESG VA AUDITNING NAZARIY ASOSLARI

Barqaror rivojlanish va ESG konsepsiyasi

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sish bilan atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanat zaruratidan shakllangan. 1987-yilgi Brundtland hisobotida u kelajak avlodlar imkoniyatini cheklamagan holda bugungi ehtiyojlarni qondirish sifatida ta'riflangan; mazkur yondashuv Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari va Parij bitimi orqali rivojlantirildi. Natijada iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlik uyg'unligi universal rivojlanish modeli sifatida qaror topdi.

Korporativ amaliyotda bu tamoyillar ESG modeli orqali namoyon bo'ladi. Environmental yo'nalishi emissiyalar, issiqxona gazlari, suv, energiya, chiqindilar va bioxilma-xillikni; Social yo'nalishi mehnat sharoiti, xodimlar rivoji, inson huquqlari, gender tengligi va mahalliy jamoalarni; Governance yo'nalishi esa boshqaruv shaffofligi, ichki nazorat, korrupsiyaga qarshi choralar, risklarni boshqarish va aksiyadorlar huquqlarini qamrab oladi.

John Elkingtonning Triple Bottom Line yondashuviga ko'ra, korxona samaradorligi foyda (Profit) bilan birga insonlar (People) va sayyoraga (Planet) ta'sir orqali ham baholanishi kerak. Robert G. Eccles va hammualliflar yuqori ESG natijalari uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik, investitsiya jalb qilish va bozor qiymati bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Michael Porter va Mark Kramerning Creating Shared Value konsepsiyasi esa ekologik-ijtimoiy mas'uliyatni korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida izohlaydi. ESG reytinglarining investorlar amaliyotida kengayishi ko'rsatkichlarni mustaqil tasdiqlash ehtiyojini yanada oshirmoqda.

Ekologik va ijtimoiy auditning mazmuni hamda standartlari

Ekologik audit korxona faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini tizimli, hujjatlashtirilgan va mustaqil tekshirish jarayonidir. U ekologik qonunchilikka rioya etilishi, atmosfera, suv va tuproqqa ta'sir, chiqindilarni boshqarish, energiya va resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ekologik risklarni baholab, ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Ijtimoiy audit esa xodimlar, iste'molchilar, mahalliy aholi va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi mas'uliyatni baholaydi; mehnat muhofazasi, ish haqi siyosati, gender tengligi, inson huquqlari, kadrlar rivoji, ijtimoiy investitsiyalar va jamoalar bilan munosabatlarni qamrab oladi. Uning vazifasi ijtimoiy barqarorlik holatini baholash va ehtimoliy xavflarni erta aniqlashdan iborat.

Mazkur sohada GRI Standards [4] barqarorlik hisobotlarini tuzish mezonlarini, IFRS S1 [5] barqarorlikka oid moliyaviy axborotni oshkor qilishning umumiy talablarini, IFRS S2 [6] esa iqlim risklari va imkoniyatlarini yoritish talablarini belgilaydi. ISO 14001 [7] ekologik menejment tizimini, ISO 19011 [8] menejment tizimlari auditini o'tkazish tartibini, ISSA 5000 [9] esa barqarorlik axborotini mustaqil tasdiqlashni tartibga soladi. Ularni uyg'un qo'llash ma'lumotlar ishonchligi, investorlar uchun shaffoflik va xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITNING KONSEPTUAL MODEL I

Amaliyotda ko'plab korxonalar ekologik va ijtimoiy ma'lumotlarni shakllantiradi, biroq ularning haqqoniyligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi har doim ham mustaqil tekshirilmaydi. Shu bois muallif ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar auditini korxonaning atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini ifodalovchi ma'lumotlarning ishonchligi, to'liqligi, xalqaro standartlarga muvofiqligi va manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga mosligini baholaydigan mustaqil, tizimli va dalillarga asoslangan tekshiruv jarayoni sifatida ta'riflaydi. Mazkur ta'rif nazorat bilan birga strategik boshqaruv va risklarni boshqarish vazifalarini ham qamrab oladi.



1-jadval
Integratsiyalashgan auditning olti bosqichli modeli¹

No	Bosqich	Audit jarayoni	Natija
1	I	Korxona faoliyatini dastlabki baholash	Ekologik va ijtimoiy risklar ro'yxati
2	II	ESG ko'rsatkichlarini tanlash	KPIlar shakllantiriladi
3	III	Dalillarni yig'ish va verifikatsiya	Ishonchli ma'lumotlar bazasi
4	IV	Xalqaro standartlar bilan solishtirish	Muvofiqlik darajasi
5	V	Integral ESG indeksini hisoblash	Barqarorlik reytingi
6	VI	Auditorlik xulosasi va takliflar	Rivojlanish dasturi

Model ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ma'lumotlarini yagona metodologiyada baholash, hisobotlar ishonchligini oshirish, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi. Uni milliy qonunchilik va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonda barqarorlik auditining institutsional asoslarini rivojlantiradi.

2-jadval

Ekologik va ijtimoiy auditning asosiy ko'rsatkichlari²

No	Ekologik ko'rsatkich	O'lchov	Ijtimoiy ko'rsatkich	O'lchov
1	Issiqxona gazlari chiqindilari (CO ₂)	tonna	Xodimlar soni	nafar
2	Elektr energiyasi sarfi	kVt·soat	Ayollar ulushi	%
3	Tabiiy gaz sarfi	m ³	Rahbar ayollar ulushi	%
4	Suv iste'moli	m ³	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar	ta
5	Qayta ishlangan suv ulushi	%	LTIFR ko'rsatkichi	koeff.
6	Xavfli chiqindilar	tonna	Mehnat muhofazasi xarajatlari	so'm
7	Qayta ishlangan chiqindilar	%	Bir xodimga to'g'ri keladigan o'quv soati	soat
8	Atmosferaga tashlanmalar	tonna	Kadrlar almashinuvi	%
9	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	%	Ijtimoiy investitsiyalar	so'm
10	Ekologik to'lovlar	so'm	Xodimlar qoniqish indeksi	%

Ekologik indikatorlar GRI 300 seriyasi [4], ISO 14001 [7] va IFRS S2 [6] talablariga moslashtirilishi mumkin. Ijtimoiy indikatorlar esa mehnat xavfsizligi, inson kapitali, teng imkoniyatlar va korporativ ijtimoiy mas'uliyat natijalarini o'lchaydi.

3-jadval

ESG auditida risklarning ustuvorligi³

Risk darajasi	Asosiy yo'nalishlar
Yuqori	Xavfli chiqindilar, atmosfera chiqindilari, suv ifloslanishi, mehnat xavfsizligi buzilishi, ekologik jarimalar
O'rta	Energiya va suv sarfi, chiqindilarni qayta ishlash, xodimlar almashinuvi
Past	Ko'kalamzorlashtirish, korporativ xayriya, ekologik targ'ibot, ixtiyoriy tashabbuslar

Risklarga asoslangan yondashuv auditorlik resurslarini ekologik va ijtimoiy ta'sir darajasi yuqori bo'lgan yo'nalishlarga ustuvor ravishda yo'naltirish imkonini beradi. Risk darajasi korxona tarmog'i va faoliyat xususiyatiga qarab aniqlashtirilishi lozim.

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.

O'ZBEKISTON KORXONALARIDA AUDITNI
TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Audit algoritmi

4-jadval

Ekologik va ijtimoiy auditni tashkil etish algoritmi⁴

No	Bosqich	Mazmuni
1	Rejalashtirish	Maqsad, ko'lam, obyekt, mezon va muddatlarni belgilash; risklar hamda audit dasturini shakllantirish.
2	Ma'lumotlarni yig'ish	Ekologik, statistik, buxgalteriya va boshqaruv hisobotlari, laboratoriya tahlillari, monitoring, ichki hujjatlar, intervyu va so'rovnomalardan dalil to'plash.
3	KPIlarni baholash	Ko'rsatkichlarni belgilangan mezonlar va xalqaro standartlar bilan taqqoslash.
4	Risklarni baholash	Kamchiliklarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruvga ehtimoliy ta'sirini aniqlash.
5	Xulosa tayyorlash	Ijoiy jihatlar, takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlar, risklar hamda ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalarni umumlashtirish.

KPIlarni baholash va ESG integral indeksi

Ko'rsatkichlarni faqat mutlaq qiymatda emas, reja yoki mezonning bajarilish darajasi bo'yicha baholash turli tarmoqlardagi korxonalarni taqqoslash uchun yagona yondashuv yaratadi.

5-jadval

KPIlarni baholash matritsasi⁵

No	Bajarilish darajasi	Ball	Baho
1	90–100 %	5	A'lo
2	75–89 %	4	Yaxshi
3	60–74 %	3	Qoniqarli
4	40–59 %	2	Qoniqarsiz
5	0–39 %	1	Juda past

$$ESG = (0,40 \times E) + (0,35 \times S) + (0,25 \times G)$$

Bu yerda E — ekologik, S — ijtimoiy, G — korporativ boshqaruv indeksi. Taklif etilgan vaznlar ekologik risklarning yuqori ahamiyatini hisobga oladi; ular tarmoqlar kesimida pilot sinovlar asosida qayta kalibrlanishi mumkin.

6-jadval

Korxonalarning ESG reytingi⁶

No	ESG indeksi	Reyting	Tavsif
1	85–100	A	Yuqori darajada barqaror
2	70–84	B	Barqaror, ayrim yo'nalishlarni yaxshilash talab etiladi
3	55–69	C	O'rtacha daraja, takomillashtirish choralari talab etiladi
4	0–54	D	Yuqori riskli korxona

Integral indeks va A–D reytingi davlat organlari, investorlar hamda moliya institutlariga korxonalarning barqarorlik darajasini tezkor taqqoslash, ustuvor risklarni aniqlash va boshqaruv yoki investitsiya qarorlarini asoslash imkonini beradi.

⁴ Manba: muallif ishlanmasi.

⁵ Manba: muallif ishlanmasi.

⁶ Manba: muallif ishlanmasi.



Audit bo'yicha tekshiruv ro'yxati

7-jadval

Ekologik va ijtimoiy audit bo'yicha tekshiruv ro'yxati⁷

No	Yo'nalish	Audit savoli	Holat
1	Atmosfera	Emissiyalar hisobga olinadimi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
2	Suv	Suv sarfi monitoring qilinadimi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
3	Chiqindilar	Xavfli chiqindilar alohida hisobga olinadimi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
4	Energiya	Energiya tejash dasturi mavjudmi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
5	Mehnat muhofazasi	Baxtsiz hodisalar tahlil qilinadimi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
6	Kadrlar	Xodimlar muntazam o'qitiladimi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
7	Gender	Gender tengligi siyosati mavjudmi?	☐ Ha / ☐ Yo'q
8	Korrupsiya	Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi bormi?	☐ Ha / ☐ Yo'q

Milliy amaliyotni rivojlantirish bo'yicha takliflar

Ekologik va ijtimoiy audit bo'yicha milliy uslubiy yondashuvlar va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Barqarorlik hisobotlari bo'yicha milliy tavsiyalarni GRI [4] hamda IFRS S1/S2 [5; 6] talablari bilan uyg'unlashtirish.

Yirik korxonalarda, jumladan, davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG hisobdorligi va mustaqil audit amaliyotini bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Auditorlar, ekologlar va korporativ boshqaruv mutaxassislari uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

Ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni raqamli monitoring qilish hamda yagona axborot platformalarini rivojlantirish.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda barqarorlik hisobotlarini e'lon qilish amaliyotini kengaytirish.

KPIlarni tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda standartlashtirish va pilot loyihalarda sinash.

Ilmiy muassasalar, auditorlik tashkilotlari va davlat organlari hamkorligini kuchaytirish hamda audit natijalaridan ekologik siyosat, risklarni boshqarish va investitsiya qarorlarida foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, investitsiyaviy jozibadorligi va risk profilini belgilovchi muhim mezonga aylanganini ko'rsatadi. Ekologik audit atrof-muhitga ta'sir va resurs samaradorligini, ijtimoiy audit esa inson kapitali, mehnat munosabatlari, xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyat natijalarini baholaydi. Shu sababli ular faqat nazorat vositasi emas, balki strategik va korporativ boshqaruv instrumentidir.

Muallif taklif etgan integratsiyalashgan model rejalashtirish, dalillarni yig'ish va verifikatsiya, KPIlarni baholash, risklarni tahlil qilish, integral ESG indeksini hisoblash va auditorlik xulosasini yagona tizimga birlashtiradi. KPI matritsasi, A–D reytingi va chek-list korxonalar natijalarini xolis va taqqoslanadigan shaklda baholashga xizmat qiladi. Modelni milliy huquqiy baza hamda tarmoq xususiyatlariga moslashtirib, pilot loyihalarda sinash zarur.

O'zbekistonda audit, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik nazorat, ekologik ekspertiza va "yashil iqtisodiyot"ga oid normativ-huquqiy bazaning rivojlanishi mazkur yo'nalish uchun huquqiy asoslarni shakllantirishga xizmat qilmoqda [14–16]. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri [13] auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ekologik va ijtimoiy auditni korporativ barqaror rivojlanish tizimiga integratsiya qilish hisobdorlik shaffofligini ta'minlash, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. — New York: United Nations, 1987. — 374 p. — URL: <https://digitallibrary.un.org/record/139811> (murojaat sanasi: 09.08.2026).

⁷ Manba: muallif ishlanmasi.



2. United Nations General Assembly. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015, A/RES/70/1. — New York: United Nations, 2015. — URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3923923> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
3. United Nations Framework Convention on Climate Change. Paris Agreement. — Paris: UNFCCC, 2015. — URL: https://unfccc.int/sites/default/files/english_paris_agreement.pdf (murojaat sanasi: 09.08.2026).
4. Global Reporting Initiative. GRI Standards: Consolidated Set of GRI Standards. — Amsterdam: Global Reporting Initiative, 2025. — URL: <https://www.globalreporting.org/standards/gri-standards-download-center/consolidated-set-of-gri-standards/> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
5. IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. — London: IFRS Foundation, 2023. — URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s1-general-requirements/> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
6. IFRS Foundation. IFRS S2 Climate-related Disclosures. — London: IFRS Foundation, 2023. — URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s2-climate-related-disclosures/> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
7. International Organization for Standardization. ISO 14001:2026. Environmental Management Systems — Requirements with Guidance for Use. — Geneva: ISO, 2026. — URL: <https://www.iso.org/standard/14001> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
8. International Organization for Standardization. ISO 19011:2026. Guidelines for Auditing Management Systems. — 4th ed. — Geneva: ISO, 2026. — URL: <https://www.iso.org/standard/19011> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
9. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standard on Sustainability Assurance 5000 (ISSA 5000): General Requirements for Sustainability Assurance Engagements. — New York: IAASB, 2024. — URL: <https://www.iaasb.org/publications/international-standard-sustainability-assurance-5000-general-requirements-sustainability-assurance> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
10. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. — Oxford: Capstone Publishing, 1997. — XIV, 402 p. — ISBN 978-1-900961-27-1.
11. Eccles R. G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science. — 2014. — Vol. 60, No. 11. — P. 2835–2857. — DOI: 10.1287/mnsc.2014.1984.
12. Porter M. E., Kramer M. R. Creating Shared Value // Harvard Business Review. — 2011. — Vol. 89, No. 1/2. — P. 62–77. — URL: <https://store.hbr.org/product/creating-shared-value/R1101C> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
13. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 25-fevral, O'RQ-677-son. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/5307886> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni, 2013-yil 27-dekabr, O'RQ-363-son. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/2304953> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
15. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuni, 2025-yil 24-fevral, O'RQ-1036-son. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-7397280> (murojaat sanasi: 09.08.2026).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4539502> (murojaat sanasi: 09.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

